

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 2 - noyabr

384-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

Yer maydonini zaxiraga qaytarib olish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6243-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 30-oktabrdagi 01-09/25401-sonli xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2023-yil 30-oktabrdagi 01-09/25401-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining egaligida bo'lgan Ellikqal'a tumani "Bo'stan" MFY hududidagi Ellikqal'a tuman tibbiyot kollejining 0,50 gektar qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni Ellikqal'a tuman hokimligi zaxirasiga o'rnatilgan tartibda qaytarib olinsin.

3. Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) Ellikqal'a tumani hokimligi zaxirasiga yer maydoni qaytarib olinishi munosabati bilan yer hisobotiga qonunshlikka muvofiq tegishli o'zgartirishlar kiritish choralarini ko'rsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklatilsin.

**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F. Ermanov